

**O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY
RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

**SAN'ATSHUNOSLIK FAKULTETI
MUZEYSHUNOSLIK KAFEDRASI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Fakultetit dekani
_____ B. Sangirov
“ ____ ” _____ 2020- yil

5150200 – San’atshunoslik (muzey ishi va madaniy meros ob’ektlarini
saqlash) ixtisosligi ta’lim yo’nalishi
055-16 guruh talabasi

**UMIRQULOVA MUHAYYO FAXRIDDIN QIZINING
ORDEN VA MEDAL KOLLEKSIYALARINI SAQLASH VA NAMOYISH
ETISH MASALALARI
(OLIMPIYA SHON-SHUXRATI MUZEYI MISOLIDA)
mavzusidagi
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar: “Muzeyshunoslik”
kafedrasi dotsenti
_____ Ch.X.Ganiyeva

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“Muzeyshunoslik”
Kafedrasi mudiri
_____ K.S.Nishanova
“ ____ ” _____ 2020 yil

Toshkent-2020

Mazkur bitiruv malakaviy ishi Muzeyshunoslik kafedrasida bajarilgan. Muzeyshunoslik kafedrasi 2020 yil ____dagi № ____-sonli majlisida hamda San'atshunoslik fakultetining «____» _____ 2020 yildagi №____-sonli fakultet Kengashida muhokama etilgan va himoyaga tavsiya etilgan.

Taqrizchi:

Himoya 2020 yil ____ iyun soat ____ da Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida o'tkaziladi.

Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshoh ko'chasi, 123 uy.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
 I BOB. ENG QADIMGI ORDEN VA MEDALLAR TARIXI.	
I.1. Orden va medal – milliy badiiy yodgorlik sifatida	9
I.2. Orden va medal san’atida allegoriya, timsollar va atributsiya	17
 II BOB. OLIMPIYA SHON-SHUHRATI MUZEYI FAOLIYATIDA ORDEN VA MEDALLAR KOLLEKSIYASI.	
II.1. Jahon muzeylarida medal kolleksiyalarini saqlash tajribasi, orden va medal to’plamlarining namoyish etilishi	29
II.2. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi faoliyatida orden va medal ashyolarini ekspozitsiyaga qo’yish masalalari	34
 XULOSA	45
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI.....	48
ILOVALAR	51

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Sportchilarimizning g'alabasi in'ikosini Olimpiya shon-shuhrati muzeyini to'ldirib turgan ular qo'lga kiritgan faxriy yorliqlar, nishonlar, medallar bilan yanada ko'proq his qila olamiz. Sportchilarimiz yutuqlari xalqning g'alabasi demakdir, ularning qo'lga kiritgan va kiritayotgan yutuqlari nafaqat mutaxassislar tomonidan kuzatilmasdan balki xalq uchun, ularda sportga kelajakda avlodlarni ajdodlarga nisbatan faxr tuyg'usini uyg'otish, o'rnak olishlari uchun sport muzeyining bo'lishi davlat uchun muhimdir.

Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov rasmiy tashrif bilan Shveysariyaning Lozanna shahrida dunyoda birinchi bo'lib ochilgan Olimpiya muzeyiga tashrif buyurganlarida: "Men ham yurtimda shunday muzey tashkil etaman, chunki mening davlatimda ham sport qahramonlari talaygina"- deganlar. Respublikamiz birinchi Prezidenti tashabbuslari bilan muzey tashkil etildi. Muzeyning tashkil etilishidan asosiy maqsad O'zbekistonda yetishib kelayotgan yosh avlodni sportga qiziqtirish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish va bo'lajak olimpiya chempionlarini yetishtirish bilan bir qatorda O'zbekiston sportchilari yutuqlarini muzeyga tashrif buyurganlarga tanishtirishdir.

Olimpiya shon-shuhrati muzeyida aynan orden va medal ashyolarining ekspozitsiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, medal ekspozitsiyalarni to'g'ri tashkil qilish orqali sportchilarning yutuqlarini ommaga to'liq yetkazib berish, yuqorida aytib o'tganimizdek yosh avlodda faxr tuyg'usini uyg'otish, O'zbekistonda yetishib kelayotgan yosh avlodni sportga qiziqtirish yotadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda prezidentimiz rahnamoliklari bilan sportning barcha turlariga e'tibor alohida qaratildi. Sportchilarimiz barcha shart-sharoitlar bilan ta'minlandi, musobaqalarda qatnashishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Bu sa'yi-harakatlarning natijasi o'laroq sportchilarimiz Jahon, Osiyo, Olimpiya o'yinlarida ishtirok etib yuqori natijalarga erishdilar va vatanimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tardilar. Hozirgi kunda sportning barcha turlari bo'yicha chempionlarimiz bo'lib ular O'zbekiston iftixorlariga aylanishdi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Mavzuning asosiy maqsadi Olimpiya shon-shuhrati muzeyining faoliyati hamda orden va medal kolleksiyalarini saqlash va namoyish etishini yoritish orqali quyidagi vazifalar belgilab olindi :

- Orden va medal – milliy badiiy yodgorlik sifatida eng qadimgi medallar tarixini o'rganish;
- Orden va medal san'atida allegoriya, timsollar va atributsiyalarni o'rganish va tahlil qilish;
- Jahon muzeylarida orden va medal kolleksiyalarini saqlash tajribasi, medal to'plamlarining namoyish etilishi, bunda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Lozannadagi Olimpiya muzeyi hamda Rossiya Olimpiya Qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan Rossiya Olimpiya harakatining zamonaviy sport muzeyining faoliyati va aynan orden va medal ashyolarining ekspozitsiyaga qo'yish usullarini o'rganish va ijobiy jihatlarini ko'rsatib berish;
- Olimpiya shon-shuhrati muzeyining faoliyatini o'rganish hamda muzey misolida orden va medal kolleksiyalarini saqlash va namoyish etishni to'g'ri tashkil qilish masalalarini o'rganish, ahamiyatini ochib berish va xulosalarni umumlashtirishdan iborat.

Mavzuning o'rganilish darajasining qiyosiy tahlili. Bitiruv malakaviy ishiga material to'plash jarayonida muzeyshunoslikka oid qator manba va ilmiy adabiyotlarga murojaat qilindi. Avvalambor muzeylarning tarixini, faoliyatini aks ettiruvchi adabiyotlar tahlil etildi. Bunday adabiyotlar qatoriga I.Ilalovning "Muzeevedenie"¹, D.T.Kuryazovanning "Muzey ishi tarixi va nazariyasi"² va "O'zbekistonda muzey ishi tarixi"³ kitobi kabilarni kiritish mumkin. Bundan tashqari "Moziydan sado"⁴ jurnalining 2014-yilda chop etilgan nashrida Olimpiya shon-shuhrati muzeyi haqida, 2016-yilgi nashrida Olimpiya shon-shuhrati muzeyining yangi ekspozitsiyasi haqida yozilgan ma'lumotlardan foydalanildi.

¹ Илалов И. Музееведение. Т.: Мусика. -2006.

² Kuryazova T.D. Muzey ishi tarixi va nazariyasi . –T.: O'qituvchi, 2007. - 159 b.

³ Курязова Т.Д. Ўзбекистонда музей иши тарихи . – Т.: Санъат , 2010. -143 б.

⁴ Axmadaliyeva G. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi. Moziydan sado. –Toshkent .2014. №4(64).-17-bet.

Bugungi kunda muzeyshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlar olib borilib, monografiya va darsliklar nashr etildi. Bu borada I.Ilatov⁵, G.Fuzailova, M.Hasanova⁶, M.Bekmurodov, M.Rashidova⁷, J.Hamidova, K.Nishanova, D.Kuryazova, M.Muhammedova, Ch.Ganieva⁸larning faoliyatlarini alohida e'tirof etish maqsadga muvofiq. "Muzey ishi tarixi va nazariyasi" kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanmada jahondagi nufuzli muzeylarning tashkil etilish tarixi, ularning faoliyati, respublikamiz muzeylari va ularning mustaqillik yillarida isloh etilishi o'rganilgan. Shuningdek, muzeyshunoslikning nazariy asoslari, muzeyda ish yuritish uslublari, ko'rgazma va ekspozitsiya tuzish metodlari haqida yozilgan. "O'zbekistonda muzey ishi tarixi" oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'jallangan bo'lib, mamlakatimizda muzeylarning yaratilish tarixi, faoliyat, rivojlanishi, muzeyshunoslikning dolzarb masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. J.H.Ismoilova, M.S.Muhammedovanning "Zamonaviy jahon muzeyshunosligi"⁹ o'quv qo'llanmasida muzeyshunoslikning nazariy asoslari, muzey ishi va uni yuritish uslublari, muzeylar faoliyatining turli yo'nalishlari, jahon muzeylari tajribasi va ular qo'llayotgan yangi metodlarni o'rganadi. J.H.Ismoilova, K.S.Nishanova, M.S.Muhammedova "Muzey va jamiyat"¹⁰ o'quv darsligida muzeylarning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, ilk nazariy tadqiqotlar va hamkorlikni rivojlantirish masalalariga qaratgan. Muzey kommunikatsiyasining nazariyasi, strukturasi va zamonaviy muzeyshunoslik taraqqiyotidagi yangi an'analar keng talqin etilgan. K.Nishanovanning "Muzey – xalq tarixining ko'zgusi"¹¹ kitobida mustaqillik yillarida sohani rivojlantirishga doir qabul qilingan qonun, farmon va qarorlar me'yoriy hujjatlar sharhiga bag'ishlangan. M.Muhammedovanning "Muzeyshunoslik sohasini rivojlantirishda milliy va

⁵Илатов И.Музееведение. –Т.: Мусика, 2006.- 475 с.

⁶Фузайлова Г., Хасанова М. Музееведение. –Т.: Фан ва технологиялар босмахонаси, 2008. - 192 с.

⁷ Бекмуродов М., Рашидова М.Музейшунослик. – Т.: Ворис Али, 2006. - 102 б.

⁸ Ganiyeva CH.X. Muzeyshunoslik. – Т.: Barkamol fayz, 2018. - 166 б.

⁹ Исмоилова Ж.Х., Муҳаммедова М.С.Замонавий жаҳон музейшунослиги. – Т.: Munis design group, 2013. - 331 б.

¹⁰Исмоилова Ж.Х., Нишанова К.С. Муҳаммедова М.С. Музей ва жамият. –Т.: Чинор ЭНК, 2015. - 176 б.

¹¹Нишанова К.Музей – халқ тарихи кўзгуси. –Т. :Ёшлар матбуоти, 2011. - 391 б.

xalqaro tashkilotlar faoliyatining o'рни (XX—XXI asr)"¹² monografiyasida muzeyshunoslik sohasini rivojlantirishda olib borilgan nazariy tadqiqotlar, milliy va xalqaro tashkilotlar faoliyati, xorijiy davlatlarda muzeyshunoslik sohasining rivojlanish omillari, tarixiy-madaniy meros obektlarni muhofaza qilishga doir normativ hujjatlar, xalqaro tashkilotlar faoliyati keng miqyoda o'rganilgan. Ushbu borada yurtimizda amalga oshirilgan ishlar, XXI asrda muzeyshunoslikni rivojlantirish jarayonlari ham tadqiq etilgan. Sanab o'tilgan darsliklar, monografiyalar, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida nafaqat zamonaviy, balki qadimiy medallar tarixi ham o'rganildi. Odnoralovning "Medal san'ati texnikasi"¹³, "An'anaviy medallar"¹⁴ kitoblarida medallarning ilk ko'rinishi, ularning tayyorlanish jarayoni, turli davlatlar o'rtasidagi medal san'atining rivojlanish bosqichlari va farqli tomonlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari medal san'atida allegoriya, timsollar va atributsiyaning mavjudligi, ahamiyati tog'risida ham ma'lumotlar o'rganildi. Kosarevaning "Medal san'ati"¹⁵, "Medal san'ati turlari va janrlari"¹⁶ kitoblarida asosan medallarning qadimdan to hozirga qadar qanday vazifalarda foydalanilganligi, ramziyligi, medal san'atining milliy badiiy yodgorlik sifatidagi o'рни haqida hamda uning turlari va janrlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Ushbu bitiruv malakaviy ishining yangiligi jahondagi mashhur sport muzeylarining faoliyati va ulardagi orden va medal kolleksiyalarining namoyish etilishini o'rganish, kamchilik va yutuqlarini taqqoslash, Olimpiya shon-shuhrati muzeyining aynan medal kolleksiyalarini saqlash hamda namoyish etilish muammolari ilk marotaba o'rganilishidir.

¹²Муҳаммедова С.М. Музейшунослик соҳасини ривожлантиришда миллий ва халқаро ташкилотлар фаолиятининг ўрни (XX—XXI аср). – Т.: 2017. - 299 б.

¹³ Оdnоралов Н.В. Техника медальерного искусства. – Москва: «Изобразительное искусство », 1983. - 251 с.

¹⁴ Оdnоралов Н.В. Традиционные медали. – Москва: «Изобразительное искусство», 1982. - 193 с.

¹⁵ Косарева А.В. Искусство медали. – Москва: «Просвещение», 1982. - 211 с.

¹⁶ Косарева А.В. Виды и жанры медальерного искусства. – Москва: «Просвещение», 1984. - 217 с.

Bitiruv malakaviy ishining obykti va predmeti. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi bitiruv malakaviy ishining obykti hisoblanadi, muzeyni tashkil qilgan orden va medal ekspozitsiyasi uning predmeti sifatida olindi.

Mavzuning ilmiy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishidan muzeyshunoslik yo'nalishi talabalari, muzey xodimlari uslubiy qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy qismi. Maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda: kirish qismi, ikki bob, ikkitadan bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I BOB. ENG QADIMGI ORDEN VA MEDALLAR TARIXI

I.1. Orden va medal – milliy badiiy yodgorlik sifatida

Orden va medal san'atining vujudga kelish tarixini metallga ishlov beruvchi rassomlar turli xil ramziy tasvirlarni metall pullarga qo'llay boshlagan vaqt bilan bog'lash mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, tangalar ko'pincha yodgorlik xarakteridagi rasmlar bilan zarb qilingan. Qadimgi davrlarda ular muhim voqealar yoki qahramonlar hotirasiga bag'ishlangan. Pulning ixtiro qilinishiga ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy omillar hamda ehtiyojlar sabab bo'lgan. Yunonlar va rimliklar tangalarining tashqi ko'rinishiga asosan mifologik qahramonlarni va hudolarini tasvirlashgan. Masalan muqaddas ho'kiz Tezey tasvirini ham tangalarida uchratishimiz mumkin.

Miloddan avvalgi I asrda pochta markalari vazifasida ham ishlatila boshlandi, Rim imperatorlari davriga kelib tangalarning ba'zilar po'latdan ishlanadigan bo'ldi. Metallga bo'rtma ishlov berish, badiiylilik kasb etish bilan bir qatorda keyinchalik tasviriy san'at ostida medal san'atining rivojlanishiga olib keladi bu esa ushbu san'atning haykaltaroshlik san'ati bilan bir pog'onada bo'lishiga olib keladi.

Misr, Yunoniston va Rimning qadimgi metall buyumlari, tangalar va zargarlik buyumlari muhim voqea- hodisalarni abadiylashtirishga xizmat qilgan va bizning davrimizga qadar saqlanib qolgan. Ular orqali antik davrga oid muhim voqealar ham o'rganilgan. Yunonistonning oltin, kumush, bronzadan yasalgan yirik medalyonlari qatoriga podshoh Baqtriani Evkratidning ulkan oltin medali (mil. avv. 200-150y.), Muhtasham Sirakuza tangalari (mil.avv. 413-yil), Ptolomeylar sulolasiga oid yirik oltin, kumush va bronza plitalar, kartagin buyumlari diqqatni jalb qiladi. Ba'zi qadimiy tangalar ikkiyoqlama maqsadda foydalanilgan edi¹⁷. Masalan Afina tangalari fuqarolarga marafon jangidan keyin tarqatish uchun chiqarilgan, shuning uchun ular nafaqat almashinuv vazifasini o'taganlar, balki esdalik medallari xarakteriga ham ega bo'lganlar. Ushbu toifaga g'alabalar va boshqa maxsus holatlar sharafiga zarb qilingan hamda Rimga tashrif

¹⁷ Одноралов Н.В. Традиционные медали. – Москва: «Изобразительное искусство», 1982. - 51 с.

buyurgan g'olib qo'mondonlar, elchilar va chet ellik amaldorlarni mukofotlash uchun Rim oltin va kumush medallari va yuqorida sanab o'tilgan tangalar kiradi. Antik davrga tegishli tangalarning old tomonida asosan imperatorlarning, generallarning va taniqli kishilarning portretlari (asosan profilda) uchraydi, ma'lumki, bu an'ana Kichik Osiyo shaharlarida ham keng tarqalgan bo'lib, u yerda fors satraplari tasvirlangan tangalar chiqarilgan. Portret rel'efi sohasidagi ulkan ish bu Aleksandr Makedonskiyning surati (mil.avv. 355-323 y.) sherning terisida, uning hukmdorligi davrida chiqarilgan tangalarda. Tadqiqotchi A.N. Kazamanova shunday deydi: "Tangalardagi asosiy tasvirlarni taxminan quyidagi mavzularga ajratish mumkin: afsonaviy sahnalar, hudolar va ma'budlar suratlari, me'moriy va haykaltaroshlik yodgorliklari, harbiy hayot voqealari yoki harbiy epizodlar"¹⁸ yodgorlik xarakteridagi tangalar ham zarb etila boshlangan, masalan, Rimda Brutus va Xelments dinorlaridir. Oktavian va Eentoniga qarshi urush paytida mil.avv 44-yil mart oyi voqealarini tarixga muhrlash uchun tangalar zarb qilganlar. Ushbu tangalarda frigiya qalpoqchalari (erkinlik ramzi) va boshqa belgilar tasvirlangan. Imperial tangalar esa vafotdan keyingi yodgorlik turi sifatida qaralishi bilan ajralib turadi. Ularni asosan taxtda o'tirgan imperator o'zidan oldingi imperator xotirasiga bag'ishlab zarb qildirgan. Bunday tangalarning old tomonida marhum imperatorning portreti tasvirlangan.

Qadimgi davrlarda Yunonistonda ham Rimda ham yodgorlik yoki esdalik tangalar chiqarilgan. Ular har doim ma'lum nominal qiymatga mos keladigan va unutilmas voqealarga bag'ishlangan. Milodiy davrning boshidan XIV asrgacha bo'lgan tarixiy davr medal san'ati tanazzuli davri deb tan olinishi kerak¹⁹. Shu bilan birga medal san'atining elementlari sekin asta dekorativ san'at asarlariga kiritilib, cherkov uchun ya'ni diniy marosimlar uchun ishlatiladigan buyumlarda ham uchratish mumkin. Apennin yarim oroli (hozirgi Italiya), Fransiya, Vizantiya va boshqa davlatlarning medallari va tangalarini o'rganish jarayonida o'rta asrlarga tegishli medallar hamda tangalarda qadimgi san'atning ta'siri sezilarli darajada

¹⁸ Кишманова Л. Н. Введение в античную нумизматику. М. 1969. - 73 с.

¹⁹ Оджералов Н.В. Традиционные медали. – Москва: «Изобразительное искусство», 1982. - 55 с.

bo'lganligini ko'ramiz. U afsonaviy va tarixiy belgilar, obrazlar va uslub xususiyatlarida uchraydi. Birinchi bunday medal Karrara hukmdori Frensis II ning Paduaga ega bo'lishi sharafiga binoan yaratilgan. Keyingi tangalardagi taniqli yoki yuqori martabali odamlarning portretlari qadimgi urf-odatlar bilan bog'liq xususiyatlarni o'z ichiga oladi. O'rta asrlarda medal san'atida yangi badiiy elementlar paydo bo'ldi, bu tangalar va medalyonlar shubhasiz pul muomalasiga kiritilmagan. Medallarning shakli aylana va chet qismida konturli truba bilan chegaralangan. Ushbu davrda esdalik va mukofot tangalari Vizantiya imperatorlari, Karolinglar sulolasi qirollari va boshqalar tomonidan zarb qilingan²⁰.

Italiyada Uyg'onish davri boshida paydo bo'lgan san'atning yuksalishi medal san'atiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Medal san'ati bilan shug'ullanuvchilarni yo'lda qoldirgan bir inson paydo bo'ladi. U Pisanello taxallusi bilan mashhur bo'lgan Antonio Pisano (1395-1455) edi. U Uyg'onish davrining beshigi bo'lgan Verona shahrida tug'ilgan edi. Yoshligida u Verona, Rim, Ferrara shaharlarida rassom bo'lgan. Pisanelloda rassomlik iste'dodi haykaltaroshlik iste'dodi bilan chmbarchas bog'liq bo'lgan holda rivojlanadi. U yaratgan barcha medallarida o'z imzosini qoldirar edi - "Opus Pisani Pictoris" ("Rassom Pisanining ishi"). Ushbu buyuk rassomning ishlari XV asr o'rtalarida Italiyada medal san'ati maktabining paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Ushbu sohada medal san'ati namoyondalari Matteo de Pasti, Giulio della Tore, Giovanni Pomozello, Karetto, Parmadan Giovanni, Andrea Cremona va Urbino vakili Klement Pisanello bilan birga ishladilar²¹. Ular butun Italiyani ushbu yangi san'at sohasi bilan tanishtirgan yosh ijodkorlar avlodini tashkil etdilar, bu uning boshqa mamlakatlarda tarqalishiga ta'sir ko'rsatdi. Pisanello zamondoshlari orasida asosan rassom sifatida mashhur bo'lgan. Afsuski uning Venetsiyadagi va Rimdagi boshqa ustalar bilan birgalikda yaratgan ishlari saqlanib qolmagan. Yaratgan freskalari ham yillar mobaydiga nobud bo'lgan²². Veronadagi Muqaddas Anastasiya cherkovi freskalari qisman saqlanib qolgan ammo shuning o'zi Pisanello ijodidagi ko'p qirralarni ochib

²⁰ Косарева А.В. Искусство медали. – Москва: «Просвещение», 1982. - 11 с.

²¹ Одноралов Н.В. Техника медальерного искусства. – Москва: «Изобразительное искусство», 1983. - 57 с.

²² Косарева А.В. Искусство медали. – Москва: «Просвещение», 1982. - 14 с.

beradi. Paleolog Yuhanno VIII tomonidan Papa Yevgeniy IV ning tshrfi sharafiga Pisanello tomonidan yaratilgan birinchi medali tasvirdagi qat'iylik bilan ajralib turadi. U shunday ishlanganki, bugungi kunda u badiiy mukammallikning mislsiz namunasi bo'lib qolmoqda. Medalni ko'zdan kechirish jarayonida diqqatni tortadigan xususiyatni ko'ramiz, bu aniqlashtirishni, yana ham chuqurroq o'rganishni talab qiladi. Medalning old fonida Djon VIII ibodat qilayotgan vaqti tasvirlangan. Uning qo'llari bukilgan holda kichkina xoch oldida tasvirlangan. Medal haqiqiy tarixiy voqeaga asoslangan. Medalning orqa tomonida esa turklar Konstantinopol darvozasi oldida turishgan va bu fojiali holatlarda Yuhanno VIII xristian olamining hukmdoriga yordam so'rab murojaat qilgan. Tasvirlangan sahnada kompozitsion yechimning mukammaligini ko'rishimiz mumkin. Orqa va old tomonning o'zaro bog'liqligi tanga yaxlitligini ta'minlaydi. Old tomonda tasvirlangan profilda Jon VIII Vizantiya taqdiridan juda havotirda tasvirlangan. Ma'lumki, profildagi portretida yuzni tasvirlashda rassom uchun ruhiy holatni, xarakterni yetkazib berish murakkabdir. Ammo Pisanello bu qiyinchilikni yengdi va uddaladi. Portret medallarda Pisanello har doim personajlarning xarakteri, tabiati, hissiy olamini ko'rsatish haqida qayg'urgan.

Umuman olganda Italiyada medal san'ati uzoq vaqt davomida yuqori darajada edi, ammo medal san'ati ustalaridan hech biri Pisanello mahoratiga erisha olmadi. Florensiya maktabining eng yirik vakillari tomonidan yaratilgan ko'plab medallar umumiy xususiyatlarga ega bo'ldi. Ular eng real portretlarni yaratishga harakat qilishdi, ammo tarixiy qahramonlarning yuz xususiyatlarini ataylab uyg'unlashtirishdi. Italiyaning shimolida – Mantua, Venetsiya, Padua, Bolonya va boshqa shaharlarda medal san'ati vakillari soni ko'paydi. Ular Kristofer di Jermiya, Per Yakob Ilario va Jan Kristoforo Romanolar edi²³.

Umuman olganda Uyg'onish davridagi Italiya medal yodgorliklari medal san'atining gullab yashnashiga xizmat qiladi. Italiya medal san'ati vakillari ko'p jihatdan o'sha davrdagi odamlar va voqealar avlodlar oldida jonli va ta'sirli tasvirlarda paydo bo'lishida katta hissa qo'shdilar. Italiyaning Uyg'onish davridagi

²³ Одноралов Н.В. Техника медальерного искусства. – Москва: «Изобразительное искусство», 1983. - 58 с.

tanga va medallarda tasvirlangan portretlari ijro mahorati bilan ajralib turadi. Ushbu medallarning teskari tomoni turli xil tarixiy dalillarni murakkab va aniq mazmunda aks ettiruvchi keng tarkibga ega.

Italiya Uyg'onish davri medal san'ati vorisi asosan milliy xususiyatlarni o'zida mujassam etgan fransuz san'ati edi. XV asr oxiri XVI asrning birinchi yarmi Fransiya medal san'ati rivojlanish vaqti boshlanishi bo'ldi²⁴. Fransuz medal san'ati vakillari Italiya medalining tasvirini hayratlanarli darajada jonlantirgan holda, estetika va oliyjanoblikni uyg'unlashtirdilar. Masalan Kandio, Primavera, Benvenuto Kellini kabi italiyalik vakillar fransuz medal san'atiga katta ta'sir ko'rsatdilar. Asosan barokko xususiyatlari bilan ajralib turadigan XVII asr fransuz medallari qahramonlarining qimmatbaho zargarlik buyumlari bilan ajoyib liboslarda tasvirlanishi, shuningdek portretlarning aniqligi va detallarning ehtiyotkorlik bilan bezatilishi bilan ajralib turadi²⁵. Bu davrning eng ko'zga ko'ringan medal san'ati vakillari Guilla Dyupre, Etyen de Lolnlar hisoblanadi. Dyupreni Pisanelloning Fransiyadagi izdoshi desak xato bo'lmaydi. Uning Genrix IV, Mariya Medichi tasvirlarini ishlashdagi mahorati italyan uslubining davomchisi sifatida tanildi. Uning Fransiya qiroliga bag'ishlangan Genrix IV portreti tasvirlangan medali o'ziga xosdir. Ushbu portret o'zining nafisligi, ravshanligi va insonning ichki dunyosiga kirib borishi, eng mayda detallarga e'tibor berilganligi bilan hatto o'sha davrda qirol tasvirlangan tasviriy san'at asarlaridanda yuqori pog'onada bo'lgan. Oval medalyonning orqa tomoni ham o'ziga xos mavzu kasb etgan bo'lib, unda qirol Navarening fransuz taxti uchun kurashlari allegorik tarzda qayta tiklangan. Ushbu teskari tomon harakatning dinamikasiga va inson tanasining mukammal darajada qayta tiklanishiga e'tiborni qaratadi, unda qirolning jang san'ati aks ettirilgan. Guilla Dyupre o'zining taniqli zamondoshlari, asosan fransuz va italiyaliklarning portretlarini ko'plab medallarda ishladi. U asarlarini o'ziga xos, hech kimnikiga o'xshamaydigan badiiy usulda yechishni bilar edi, ichki his tuyg'ularidan tortib tasvirleyotgan qahramonlarini

²⁴ Одноралов Н.В. Традиционные медали. – Москва: «Изобразительное искусство», 1982. - 60 с.

²⁵ Косарева А.В. Искусство медали. – Москва: «Просвещение», 1982. - 16 с.

jamiyatda tutgan o'rnigacha ko'rsatib berishga harakat qilar edi. Dyupre vafot etganidan so'ng fransuz medal san'atini vakillari maktabini flamand millatiga mansub Jan Varen boshqargan. Jan Varen va uning izdoshlari o'yma po'latdan yasalgan shtamplarga murojaat qilishdi.

Lyudovik XIV hukmronligining yakuni nafaqat fransuz medal san'ati uchun, balki butun Yevropa san'ati uchun ham muhim voqea bo'ldi. Bu Fransiya tarixini medallarda aks ettirish bilan bog'liq edi. Fransiyaning "Kichik tarix" asarini yaratishda taniqli olimlar, medal san'ati vakillari va yozuvchilar ishtirok etishdi²⁶. Ular orasida Boile va Racine ham bor, ular hatto Fransiya uchun tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan bir qator medallar uchun tasniflar yozib qoldirganlar. Afsuski "Kichik tarix"ni yaratishni tezlashtirish uchun ular medallarni tayyorlashning oddiy usullariga murojaat qilishdi. Medal matni uchun profillar, shriftlardagi standart rasmlar oldindan tayyorlangan. Eskizlar butunlay bekor qilindi va o'yma to'g'ridan-to'g'ri asl nusxada amalga oshirildi. Ushbu hunarmandchilik amaliyoti katta badiiy ahamiyatga ega asarlar yaratilishiga kam hissa qo'shdi. Ushbu asrda Ferdinand de San Urbain, Jan Dassier va uning o'g'li Jak Dassier, Benjamin Duvivier va boshqa bir qator ustalar tomonidan yaratilgan Volter, Monteskye, Russo, Moliere, Racinining asarlari bilan medallar aqlidrokning kuchini yetkazish va xarakterning ramziy ochilishini tavsiflaydi. Masalan Jan Dassier tomonidan Monteskye tasvirini olish mumkin. Baron de la Brade de Monteskye mashhur oliyjanob oiladan kelib chiqqan bo'lib, ota-onasi tomonidan yaratib berilgan shart-sharoitlardan vos kechadi va o'zini butunlay fanga bag'ishlaydi. Old tomonda tasvirlangan Monteskye portreti nafaqat Jan Dassierning asari balki fransuz medal portretining eng yirik asarlaridan biri hisoblanadi.

Italiya va fransuz medal san'atini o'rtasida muayyan uzluksizlikni aniqlash qiyin emas. Yana bir narsa Germaniyada ham huddi shu davrda medallarni yaratish san'ati rivojlanadi, Nyurnberg va Ausburg o'rtasidagi kichik hududlarda ushbu

²⁶ Одноралов Н. В. Техника медальерного искусства. – Москва: «Изобразительное искусство», 1983. - 62 с.

san'atni uchratamiz. Juda kam istisnolar bilan XVI asrning birinchi yarmidagi nemis medal vakillari san'ati Italiya va Fransiya Uyg'onish davri ta'sirida bo'lmagan. Agar Pisanello har bir medalida rassom ekanligini eslatsa va Guilla Dyupre medallaridagi tasvirlar, ijod mahorati ularning muallifi mohir haykaltarosh ekanligini ko'rsatadi²⁷.

Nemis medal san'ati vakillari mahoratining kelib chiqishi yog'och o'ymakorligi san'atiga borib taqaladi. Nemis medal san'atining bunday ildizlari ularning ishlarini texnikasi va badiiy sifatini belgilab beradi. Ular medallar yaratish uchun asosan qattiq daraxtdan yoki qattiq toshdan foydalanganlar. Shunday qilib XVI asrdan boshlab nemis medallarining badiiy xususiyatlari: rel'efning qo'pol tuzilishi, yorug'lik va soyaning ataylab qarama-qarshiligi – material rel'efning o'ziga xos xususiyatlarini shunday belgilagan. Bir qator belgi va xususiyatlarga tayanib italyan va fransuz medalidan farqli o'laroq, nemis medal san'ati, ma'lum darajada, shartli ravishda, burjua deb atash mumkin. Bu asosan burgerlarning hayoti, psixologiyasi va tashqi ko'rinishi bilan bog'liqdir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, Germaniya medallari ko'pincha bir tomonlama edi²⁸. Ularning orqa tomonida odatda tasvir yo'q yoki u juda elementar edi, geraldik belgilarga asoslangan bo'lgan. Germaniyada medal san'ati rivojidadagi keyingi davr yog'och o'ymakorlik uslubidan voz kechish hamda Italiya Uyg'onish davri ustalarining nufuzining oshishi bilan tavsiflanadi. XVII asrning ikkinchi yarmida Yevropaning turli mamlakatlarida va asosan Fransiya, Germaniya va Gollandiyada medallar cheklangan miqdorda yaratildi. XVIII asr va XIX asr boshlarida Fransiyada medal san'ati tanazzulga yuz tutdi. Italiyada ham keyin asosan mukofot va esdalik medallar uzoq vaqtgacha ishlatildi. Bir qator Yevropa mamlakatlarida ham shu maqsadda foydalaniladi va ushbu san'at susayishi seziladi. Bunga asosiy sabablardan biri bu notinch siyosiy vaziyatlarning hukm surishidir. Fransiyada turli xil san'at shakllarining o'zgaruvchan rejimlarni siyosiy targ'ibot maqsadlariga bo'ysunish tarixdan ma'lum. Inqilob davrida fransuz medal san'ati medalning

²⁷ Одноралов Н.В. Техника медальерного искусства. – Москва: «Изобразительное искусство», 1983. - 64 с.

²⁸ Косарева А.В. Искусство медали. – Москва: «Просвещение», 1982. - 18 с.

qadimgi san'ati yordamida ijtimoiy g'oyalarni ifoda etishga harakat qildi. Ammo bu vaqtda yaratilgan medallar qadimiy medallarga nisbatan primitivroq edi, o'ymakorlardagi tajriba va mahorat yetishmasligi medallarda aks etgan. Bir so'z bilan aytganda ular qadimiy san'at darajasiga yetisha olmadilar. Fransuz medal san'atining ushbu davriga kelib yangi bir narsa kiritildi. Bu yangilik xalq g'alabasini sharaflaydigan ommaviy sahnalarni orzu qilish edi. Fransuz medal san'ati uchun eng og'ir kunlar Qayta tiklash va Uchinchi Respublika yillariga to'g'ri keldi. Mashhur rassom Jak Lui Davidning medal ishlari namunalarining paydo bo'lishi hunarmandchilik medallarini yig'ishda hal qiluvchi rol o'ynadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida medallar san'ati yuksalishi Udine, uning ajoyib talabasi Chaplin, Roti, Dejorj, Dubois va boshqalar ijodida boshlandi. Ularning san'atga kirib kelishi bilan medallar yaratish san'atining zamonaviy real yo'nalishi shakllandi, bu medal san'atida yangi davrni boshlab berdi. Ushbu taniqli medal san'ati vakillarining ismlari "Chevrel" medalining plakatiga yozilgan. Rotining eng yaxshi asarlaridan biri bu mashhur kimyogar Chevrel I ning surati. Dejorjning ajoyib, mashhur ishi 1870- 1871- yillarda o'z vatani uchun vafot etgan Oliy badiiy bilim yurtining talabalari xotirasiga bag'ishlangan kumush medali hisoblanadi. Fransuz medal san'atini yangilashda Italiya Uyg'onish davridagi eng buyuk ustalarning eng yaxshi an'alariga qaytish muhim rol o'ynaydi. Bu Ponkarm, Levillen, Peter kabi iste'dodli ustalarning asarlarida aks etgan. Ularning asarlarida uzoq o'tmishdoshi Pisanello asarlariga xos xususiyatlar aks etganligi bilan ham ahamiyatlidir²⁹.

XIX- XX asr oxirlarida Fransiya medal san'ati Yevropa medal san'atida yetakchi o'rinni saqlab kelmoqda edi. Nafaqat fransuz, balki ko'plab nufuzli asarlar nemis, avstriyalik va ingliz ustalari tomonidan yaratilgan. Yirik fransuz, nemis, avstriyalik va ingliz medal ustalari asarlarining o'ziga xos xususiyatlari tasvirning beg'uborligi, har bir detalning mukammal aniqligi, shakl va tarkib

²⁹ Одноралов Н.В. Техника медальерного искусства. – Москва: «Изобразительное искусство», 1983. - 66 с.

birligini izlash, bezakda haddan tashqari talablarning rad etilishi va boshqa shu kabi xususiyatlar bilan ahamiyatlidir³⁰.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, medal san'ati qadimdan rivojlanib kelgan va u o'z ichiga ko'pgina tasviriy san'at turlarini qamrab olgan san'at hisoblanadi. Medal san'ati vakili aynan qaysi tasviriy san'atda ijod qilishi uning asarlaridan, yaratgan medallarida ham o'z aksini topadi, uning ishlarida namoyon bo'ladi. Ushbu san'at turli davlatlarda turlicha rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Antik davrdan boshlab to hozirgacha ham medal san'ati dunyo miqyosida o'z o'rnini egallab kelmoqda. Uning eng rivojlangan davrini Italiya Uyg'onish davriga bog'lasak, undan so'ng Fransiya va Germaniya davlatlari ham Italiya medal san'ati ta'siri ostida o'z an'alariga ega bo'lgan holda medal san'ati rivojiga katta hissa qo'shdilar. Italiyada mashhur rassom Pisanello yaratgan medal namunalari butun dunyo uchun medal san'ati maktabining asosi bo'ldi. Medallar yodgorlik sifatida bizga tarixdan so'zlaydi.

I.2. Orden va medal san'atida allegoriya, timsollar va atributsiya.

Orden va medal san'atidagi ramziylik va allegoriyalarni avval biz monumental asarlar va tasviriy san'at turlarining boshqa turlariga murojaat qilgan holda osonroq tushunamiz. Bu bizga yetkazib berilishi kerak bo'lgan g'oyani to'g'ri anglab olishimiz uchun katta yordam beradi. Tasviriy san'atida ramz va allegoriya juda erta vujudga keladi, ammo yangi ramziylik qadimgisidan yangi munosabatlarda, inqilobiy, majoziy timsollarni tasvirlashi bilan farq qila boshlaydi. U plastik san'atning barcha turlarida aks ettirilgan.

Haykaltarosh I. Shadr tomonidan yaratilgan "Toshbaqalar – bu proletariat quroli" kompozitsiyasi ramziylikning zamonaviy yangi asosda vujudga kelgan fundamental yangiligidir. Tasvirning mafkuraviy qobiliyati bu ishni ramziy bo'lishiga xizmat qiladi. Berlindagi Treptower parkidagi haykaltarosh Vuchetich tomonidan o'rnatilgan yodgorlikdagi o'sha davr qahramoni ya'ni jangchisini tasviri ramziylikning yangi ko'rinishi bilan ajralib turadi. Unda ijodkor ramziy va hikoyaviy tusdagi rasmlardan foydalanib, haqiqiy mazmunga ega allegoriya va

³⁰ Косарева А.В. Искусство медали. – Москва: «Просвещение», 1982. -25 с.

allegoriya elementlarini birlashtiradi. Yodgorlikning syujet asoslari ham real, ham ramziydir³¹. Ushbu yodgorlikda sovet askari shamshirni tuproqqa uloqtirgan va urush olovidan qutqarilgan bolani ko'kragiga bosgan, kuchli qilich o'rtasidagi bog'liqlik ramziy umumlashma bilan yakunlanadi. Fashizm yosh avlod hayotini o'zgartirishi uchun yo'l ochdi – bu yodgorlikning aniq bayoni³². Huddi shu muallif Volgogradda ulkan haykaltaroshlik majmuasini yaratdi, unda ramziylik va allegoriya butun haykal yechimining asosi hisoblanadi. Ushbu majmuaning ramziy markazi – bu ayolning ulug'vor siymosi ya'ni Vatan timsolidir. Uning chap qo'li biroz orqaga surilib, shahar mudofaasi qahramonlariga ishora qiladi va ularning qilichi o'ng qo'lida mahkam ushlanib turadi. Ushbu allegoriyaning ma'nosini mashhur diktatsiya bilan ta'kidlash mumkin: Biz tomon qilich bilan kelgan kishi halok bo'ladi"³³.

Ushbu ikki mashhur haykaltarosh 1965 va 1975 – yillarda chiqarilgan esdalik rubllarda o'zlarining aksini topdilar va ular ajablanarli darajada tangalarning yumaloq yuzasiga joylandilar. Undan tashqari V.I.Muxinaning “Ishchi va kolxozchi qiz” asarining monumental plastmassada o'sha davr ishchilari va dehqonlarining mehnat birligini aks ettiruvchi ajoyib ishorasi edi. Ushbu kompozitsiyada Muxina imo-ishoralar va raqamlarning tezkor harakati bilan ifodalangan ramziy ma'noda timsolni topdi. Ushbu haykal 1967- yilda zarb qilingan. Muallif V.I.Muxinaning xotirasiga bag'ishlab medal san'ati vakili M. Kojina medalni yaratdi, unda bu ramziy haykal orqa tomonida tasvirlangan. Medal san'ati sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan ramziylikdan foydalanishning yaxshi namunasi shtamp va konvertlarda samolyotlarning tasvirlarini yaratgan grafik rassomlarning asarlari bo'ldi. 1969- yil oxirida Aloqa vazirligi beshta fuqaro aviatsiyasining konvertlarini chiqaradi. Ushbu konvertlar “Ichki aeronavtika va aviatsiya tarixi” pochta markalari turkumining chiqarilishi bilan bir vaqtda tayyorlangan. Konvertlardan birida birinchi samolyot – taniqli samolyot dizayneri

³¹ Одноралов Н.В. Техника медальерного искусства. – Москва: «Изобразительное искусство », 1983. - 70 с.

³² Косарева А.В. Искусство медали. – Москва: «Просвещение», 1982. - 27 с.

³³ Одноралов Н.В. Техника медальерного искусства. – Москва: «Изобразительное искусство», 1983. - 73 с.

A.N.Tupolev tomonidan yaratilgan ANT- 2 universal monoplani tasvirlangan. Unda samolyot mifologik qahramon Ikarar fonida tasvirlangan. Ushbu afsonada qadimgi yunonlarning havoda erkin parvoz qilish haqidagi orzulari amalga oshiriladi. 1930-yilda yaratilgan birinchi Sobiq hokimiyati vertolyoti “ЦАГИ- 1-ЭА” pochta markasida tasvirlanadi. Mashina fonida yunon Eos ma’budasi tasvirlangan bo’lib, u shafaqni, quyosh chiqishini, yangi kunni anglatadi va bu holda rus vertolyot sanoatining rivojlanishida yangi davr boshlanganligiga ishora bor edi. Konvertlardan birida esa tezyurar TY-104 layneri tasvirlangan. U sehrli otning ramzi bo’lgan Pegasus yulduz turkumi fonida ko’tarilayotgani tasvirlanadi. Uchinchi konvert Sovet hokimiyati МИ-10 vertolyotiga bag’ishlangan bo’lib, u Leo burjua fonida daxlsizlik belgisi sifatida tasvirlangan.

Olimpiya shon-shuhrati muzeyi – mamlakatimiz sportining ko'zgusi desak adashmagan bo'lamiz. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi dunyoda beshinchi, Osiyoda birinchi va hozirgi kungacha yagona muzeydir. Bu muzeyga AQSH, Ispaniya, Shveytsariya, Gretsiya, Rossiya va boshqa ko'plab xorijiy davlatlardan noyob eksponatlar olib kelingan. Muzey nafaqat O'zbekiston sporti tarixini, balki olimpiya o'yinlari harakati tarixini ham o'zida mujassamlashtiradi. Olimpiya muzeyi egallab turgan hududi va aynan olimpiya o'yinlari tarixiga ixtisoslashtirilgan alohida muzeyligi bilan dunyodagi beshta olimpiya muzeylari qatorida xalqaro muzeylar reystriga hamda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tarkibiga kiritilgan. Muzey yaqin qo'shni davlatlar hatto MDH davlatlari ichida birinchi ochilganligi va yagonaligi bilan alohida o'rin tutadi. Hozirgi kunga qadar muzey dunyoda va Osiyoda o'z statusini saqlab qolgan. Muzey “Lozanna olimpiya muzeyidan keyin turuvchi oliy toifali muzey” deya e'tirof etilgan⁶⁰.

⁵⁸ <https://t.me/Olympicmuseum>

⁵⁹ Axmadaliyeva G. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi. Moziydan sado. –Toshkent .2014. №4(64).-17-bet.

⁶⁰ <https://t.me/Olympicmuseum>

Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov rasmiy tashrif bilan Shveysariyaning Lozanna shahrida dunyoda birinchi bo'lib ochilgan Olimpiya muzeyiga tashrif buyurganlarida: “Men ham yurtimda shunday muzey tashkil etaman, chunki mening davlatimda ham sport qahramonlari talaygina”- deganlar. Respublikamiz birinchi Prezidenti tashabbuslari bilan muzey tashkil etildi. Muzeyning tashkil etilishidan asosiy maqsad O'zbekistonda yetishib kelayotgan yosh avlodni sportga qiziqtirish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish va bo'lajak olimpiya chempionlarini yetishtirish bilan bir qatorda O'zbekiston sportchilari yutuqlarini muzeyga tashrif buyurganlarga tanishtirishdir. Muzeyga yiliga olti ming nafardan ziyod tomoshabin, xorijlik sayyohlar, maktab, oliy o'quv yurt talabalari va sportchilar tashrif buyuradi. Yurtimizning mashhur sportchilari bilan hamkorlikda yoshlar uchun suhbatlar, turli tadbirlar tashkil etiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek muzeyimiz mustaqilligimizning besh yillik to'yiga ochilgan muzeydir. Umuman muzeyimiz Respublikamiz mustaqillikka erishish tarixi bilan boshlanadi⁶¹.

Muzeyning umumiy maydoni 2700 kvadrat metrni, shu jumladan ekspozitsiya maydoni 1073 kvadrat metrni tashkil etadi. Muzey Olimpiya va sport harakatiga ixtisoslashtirilgan jahondagi 14 ta muzeyning eng yiriklaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, muzey Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Lozannadagi Olimpiya muzeyi filiali ham hisoblanadi⁶².

Olimpiya harakatini, sportning milliy turlari va xalq o'yinlarini keng targ'ib etish, Olimpiya harakati bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga ko'maklashish muzey faoliyatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Muzey asosiy fond eksponatlari soni 2500 tani, ekspozitsiyaga qo'yilgan eksponatlar soni 1015 tani tashkil etadi. Ekspozitsiyalar muzeyning birinchi va ikkinchi qavatida joylashgan bo'lib, muzeyning birinchi qavatini asosan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan muzeyga

⁶¹ Олимпия Шон-шухрати музейи. Йўлқўрсаткич/ Тузувчи Ахмадалиева Г. 2016.

⁶² Axmadaliyeva G. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi. Moziydan sado. –Toshkent. 2014. №4(64) -17-bet.

sovg'a qilingan, unga Olimpiya harakati va sportni rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun berilgan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Oltin ordeni, Milliy Olimpiya Qo'mitalari assotsiatsiyasining Oltin ordeni, Osiyo Olimpiya Kengashining Oltin ordeni, Havaskor kurashchilar xalqaro federatsiyasining Oltin marjoni hamda xalqaro musobaqalar tomonidan taqdim etilgan kuboklar va boshqa sovg'alar alohida o'rin egallaydi.

Ikkinchi qavatda esa yozgi hamda qishki Olimpiya o'yinlari tarixi to'g'risidagi materiallar, ularda O'zbekiston sportchilarining ishtiroki, erishgan g'alabalariga bag'ishlangan. Ekspozitsiyalarda antik davr Olimpiya o'yinlariga taaluqli qadimiy tangalar, olimpiada o'yinlari medallari, esdalik nishonlari, kuboklari, pochta markalari, plakatlari, dasturlar, taklifnomalar, kitob va risolalar, boshqa bosma materiallar mavjud. Ekspонатlar ichida yana yuz yillik tarixga ega bo'lgan numizmatika ashyolari, qadimiy foto va hujjatlar, shuningdek miloddan avvalgi 450- 470- yillarga tegishli olimpiya tangalari va ko'plab medallar ham joy olgan. Eng asosiysi ekspонатlar ichida Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi kolleksiyasi tomonidan muzeyga sovg'a tariqasida taqdim etilgan noyob ekspонатlar ham joy olgan⁶³. Muzeydagi ekspонатlar ma'lum davrda jamiyatda yuz bergan voqealarni ashyoviy dalillar sifatida saqlaydi va biror madaniy yoki tarixiy voqeani isbotlash uchun ulardan dalil sifatida foydalaniladi. Bunda voqeaning o'zigina emas balki namoyish qilishdan asosiy maqsadni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Shu turdagi axborotni mohiyatini anglab olishga intilishning o'ziga xos xususiyati uni yaqqol namoyish qila olishiga ham bog'liq. Muzey ekspонатlarini namoyish etishda yangi usullar ham qo'llanilmoqda. Muzeyga keluvchilarning orasida imkoniyati chegaralanganlar ham bo'lishi mumkinligini hisobga olib namoyish qilishning noan'anaviy usullaridan ham foydalanilmoqda. Elektron moslamalar yordamida ashyolarga virtual shakl berish orqali turli toifadagi odamlarga, hatto bolalarda ham sport turlariga taassurot qoldirish mumkin bo'lmoqda.

⁶³ Олимпия Шон-шухрати музейи. Йўлқўрсаткич/ Тузувчи Ахмадалиева Г. 2016.

Muzeyda yurtimiz sportchilarini nufuzli sport musobaqalariga kuzatish, kutib olish va taqdirlash marosimidan tashqari turli xalqaro sport tadbirlari ham o'tkaziladi. Muzeyda 1966-yil Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Prezidenti X.A. Samaranch, Osiyo Olimpiya Kengashining raisi Al Sabax, 2015- yili "Xalqaro olimpiya kuni" ni nishonlash uchun Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Prezidenti Tomas Bax va Osiyo Olimpiya Kengashining raisi Al Sabaxlar tashrif buyurishgan. Yurtimizga tashrif buyurgan xalqaro sport arboblari ham muzeyga kirmasdan ketmaydilar. Muzey, muzey ashyolari kolleksiyalarini, asori-atiqalarini saqlash, namoyish etish, kelajak avlodga bus butunligicha yetkazish, milliy muzey fondini boyitish bilan chegaralanib qolmay, yoshlarimizni yurtimizning taniqli sportchilari bilan uchrashtiradigan va dildan suhbatlashadigan sevimli maskani hisoblanadi. Muzeyda ekskursiya faoliyati olib borilishidan tashqari yurtimizning taniqli sportchilari haqida qisqa metrajli videofilmlar ham ko'rsatiladi.

Yurtimizda o'quvchi va talaba-yoshlar o'rtasida tobora ommalashib borayotgan, ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan navqiron o'g'il-qizlar uchun chinakam chiniqish va mahorat maktabiga, katta hayot yo'lida parvoz maydonchasiga aylanib ulgurgan "Umid nihollari", "Barkamol avlod", Universiada sport musobaqalarini o'zida mujassamlagan uch bosqichdan iborat yaxlit tizim yaratilgan. Mazkur tizim orqali bugungi kunda nufuzli xalqaro maydonlarda vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarib kelayotgan mashhur sportchilar yetishib chiqmoqda. Eng muhimi, ushbu musobaqalar yoshlarimizni ommaviy tarzda sportga, sog'lom turmush tarziga oshno qilish vositasiga aylandi.

Olimpiya Shon-shuhrati muzeyi aholining, ayniqsa, yosh avlodga respublikamizda olib borilayotgan sport sohasidagi siyosat, jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish va maqsadli tayyorlash ishlarini tizimli tashkil etish borasida keng ko'lamli ishlar to'g'risida ma'lumot beruvchi muassasadir.

Olimpiya shon-shuhrati muzeyi orden va medal ashyolarini ekspozitsiyaga qo'yish masalalari. Olimpiya shon-shuhrati muzeyida aynan medal ashyolarini ekspozitsiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, medallar tartib bilan yilma-yil hamda aynan qaysi sport turiga tegishli ekanligiga ahamiyat bergan holda joylashtirilganligini ko'rish mumkin. Lekin ekspozitsiya muammodan holi emas, medallarning aksariyati original emas ya'ni ko'pchiligi haqiqiy bo'lmasada aynan nusxasi saqlanadi. Ba'zi vitrinalarda sportchilarimizning ko'ngillilari o'zlarining medallarini sovg'a tariqasida muzeyga taqdim qilganlari ham bor ammo bu kamchilikni tashkil etadi.

Olimpiya shon-shuhrati muzeyida tashkil qilgan medal kolleksiyalarining bir qismi haqida ma'lumot:

London olimpiadasida O'zbekiston sportchilari 4 ta medalni qo'lga kiritishdi (1 ta oltin 3 ta bronza). Umumiy reyting hisobida O'zbekiston Olimpiya terma jamoasi 205 ta davlat orasida 47- o'rini egalladi.

1-o'rin - AQSH 46 ta oltin, 29 ta kumush, 29 ta bronza.

2-o'rin - Xitoy 38 ta oltin, 27 ta kumush, 22 ta bronza.

3-o'rin - Buyuk Britaniya 29 ta oltin, 17 ta kumush, 19 ta bronza.

Terma jamoa hisobiga ilk medalni Rishod Sobirov bronza medalni keltirdi. Bokschi Abbas Atoev musobaqalarning bronza medalini qo'lga kiritdi. Olimpiadaning nufuzli oltin medalini hamyurtimiz Artur Taymazov qo'lga kiritib O'zbekiston bayrog'ini balandlarga ko'tardi⁶⁴.

FILA- Xalqaro Xavaskorlar kurash Federatsiyasi bosh kotibi Mishel Dyusson tomonidan yurtboshimizga kurashning rivojlanishiga qo'shayotgan hissalar uchun topshirilgan oltin medal ham ekspozitsiyadan joy olgan.

2009-yil Yaponiyaning Tokio shahrida o'tkazilgan yoshlar o'rtasidagi birinchi Paraosiyo o'yinlari medali ham ekspozitsiyadan joy olgan.

XXI Olimpiya o'yinlari 1976-yil 17-iyuldan – 1-avgust kunlari Monreal shahrida bo'lib o'tdi. Musobaqada bokschi R.Risqiev kumush medalga , taniqli

⁶⁴Олимпия Шон-шухрати музейи. Йўлқўрсаткич/ Тузувчи Ахмадалиева Г. 2016.

futbolchi Vladimir Fyodorov bronza medaliga sazovor bo'ldilar. Ushbu medallar ham muzey ekspozitsiyasidan joy olgan.

XXII Olimpiya o'yinlarida o'zbekistonlik sportchilar ham ajoyib yutuqlarni qo'lga kiritdilar: 6 ta oltin, 4 ta kumush, 4 ta bronza medalini qo'lga kiritildi.

Xitoyda o'tkazilgan navbatdagi Olimpiadada O'zbekistondan 58 nafar sportchi sportning 15 turi bo'yicha musobaqada qatnashdilar. O'zbekiston Sport vakillari nomidan O'zbekiston bayrog'ini ochilish marosimida bokschi Dilshod Maxmudov ko'tarib o'tdi.

O'zbekiston milliy terma jamoasining 58 a'zosi, musobaqalarda oltita medalni qo'lga kiritdi:

1. Artur Taymazov – erkin kurash – oltin.
2. Abdulla Tangriev – Dzyudo – kumush.
3. Soslan Tigiev - erkin kurash – kumush.
4. Rishod Sobirov – dzyudo – bronza
5. Anton Fokin – sport gimnastikasi – bronza.
6. Ekaterina Xilko – trampolin – bronza.

XXIV Olimpiya o'yinlari Koreyaning Seul shahrida o'tkazildi. Musobaqalar 1988-yil 17-sentyabrdan 2-oktyabrgacha davom etib, unda O'zbekistonlik sportchildan 2 ta oltin, 2 ta kumush, 2 ta bronza medaliga sazovor bo'ldilar. Jumladan: kurashchilar Maxarbek Xadarsev bilan Arsen Fadzaev 1-o'ringa, og'ir atletikachi Noil Muxammadiyorov va langar bilan sakrash ustasi Rodion Gataulin 2-o'ringa, chalqancha suzish ustasi Sergey Zabolotnov 3-o'ringa ega bo'lishdi. Ular qo'lga kiritgan medallar ham ekspozitsiyadan o'rin oldi.

Yana bir vitrinadan: Taekvando sport turi bo'yicha g'olibi A.Kim qo'lga kiritgan Yevropa medali (2000-y. Sankt Peterburg) o'rin olgan. Bundan tashqari Osiyo Kikboksing chempionati oltin medali (Toshkent 2005-y), SH.Ibragimov karate bo'yicha qo'lga kiritgan VII Jahon Kubogi medali, L.Latipovning Sambo bo'yicha qo'lga kiritgan Jahon Chempionati kubogi va bronza medali (Kiev, Ukraina 2000-y), figurali uchish bo'yicha XI Osiyo oltin medali (Seul Koreya 1994-y), taekvando bo'yicha X Jahon chempionati g'olibi A.Kim qo'lga kiritgan

oltin medali, mashhur gimnastikachi Oksana Chusovitina Olimpiya va Jahon chempioni bo'lgan, ko'plab nufuzli musobaqalarda g'olib chiqqan va ularda qo'lga kiritgan medallar ham muzey ekspozitsiyasidan o'rin egallagan. Ayniqsa 2002-yilgi 14-Osiyo o'yinlarida Oksananing 2 ta oltin, 2 ta kumush medalni qo'lga kiritishi esa uning nomini afsonaga aylantirdi. Chunki u farzand ko'rganidan keyin musobaqalarda qatnashib, g'alaba qozongan dunyodagi birinchi gimnastikachi ayol sifatida tan olindi.

Navbatdagi qishki Olimpiya o'yinlari 1994-yil Norvegiyaning Lilixammer shaxrida 12-27-fevral kunlari 6 sport turi bo'yicha musobaqalar o'tkazildi. Ushbu Olimpiyadada bellashgan 67 mamlakatning 1739 sportchisi ichida 7 ta O'zbekistonlik ham bor edi ⁶⁵.

Chang'ichi Lina Cheryazova shu olimpiya o'yinlarida qatnashib, chang'ining fristayl turi bo'yicha birinchilikni qo'lga kiritdi. L.Cheryazovanning mardligiga, ko'rsatgan jasoratiga tan berib, X.A.Samaranch o'z qo'llari bilan uning bo'yniga oltin medalni taqib qo'ydi. Shu yilgi olimpiya o'yinlarida birinchi marotaba L.Cheryazova sharafiga Mustaqil O'zbekiston Respublikasi madhiyasi kuylandi va bayrog'i ko'kga ko'tarildi. L.Cheryazova Mustaqil Respublikamizga birinchi oltin medal keltirgan birinchi sportchimizdir.

Yana bir vitrinadan L.Cheryazovanning ramkaga joylashtirilgan oltin medali, sur'ati, shaxsiy chang'isi va sport kiyimi joy olgan.

1996-yilgi olimpiya o'yinlari 19-iyul – 4-avgust kunlari Atlantada bo'lib o'tgan musobaqalar zamonaviy Olimpiya harakatining 100 yilligiga bag'ishlandi va bu o'yinlar 17-iyul kuni Amerikaning Atlanta shahridagi Olimpiya stadionida yangi asr oldi o'yinlarining mash'alasi yondirildi. O'zbekiston dzyudochi Armen Bagdasarov kumush, bokschi Karim To'laganov bronza medaliga sazovor bo'lishdi. Ushbu medallarni ham muzeyda ko'rish mumkin.

XXVII Olimpiya o'yinlari Avstraliyaning Sidney shahrida bo'lib o'tdi. Avstraliyaning Sidney shahriga tashrif buyurgan musobaqachilar 2000-yil 15-sentyabrdan 1- oktyabrga qadar davom etdi.

⁶⁵Олимпия Шон-шухрати музейи. Йўлқўрсаткич/ Тузувчи Ахмадалиева Г. 2016.

Musobaqada O'zbekiston vakillaridan o'zbek o'g'loni- taniqli bokschi Muxammadqodir Abdullaev Olimpiya chempioni bo'ldi.

Ushbu o'yinlarda o'zbekistonlik sportchilar – Aleksandr Doktorishvili, Artur Taymazov oltin medal, Magomed Ibragimov kumush medal, O'tkir Haydarov va Baxodir Sultonov bronza medallari bilan taqdirlandi. Olimpiadada qatnashgan 200 dan ziyod mamlakat orasida O'zbekistonning umumjamoa hisobida 34-o'rinni egallashi jahon sport muttaxislari tomonidan katta muvaffaqiyat sifatida etirof etildi. Yuqoridagi medallarning barchasi O'zbekistonlik sportchilarning yutuq va muvaffaqiyatlarining ko'zgusi sifatida ekspozitsiyani boyitib kelmoqda.

Olimpiya shon-shuhrati muzeyida ham aynan medal ashyolarini ekspozitsiyasida alohida zal tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zalda nafaqat medal predmetlari balki, sportchilarimizga medal taqdim etilayotgan jarayondan parcha videolavhalar, medallar haqida ma'lumot berib turuvchi audiogitlar tashkil qilinsa balki bu omma e'tiborini yanada tortgan bo'lar edi. Albatta videolavhalar, asosan qisqa metrajli lavhalarni namoyish etib borish muzey tomonidan tashkillashtirilgan, ammo ushbu videolavhalarda umumiy jarayonlar namoyish etib boriladi, aynan medallarga aloqador videolavhalarni ham namoyish etish tashrif buyuruvchilarning diqqatini tortishga hamda qiziqtirishiga, imkon qadar medallar ko'p joylashtirilgan zallarda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yorug'lik ham eksponatning qiymatini ko'rsatib berishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu muzeyda tabiiy yorug'lik yetarli tashkil qilinmaganligi sababli chiroqlar yordamidan foydalaniladi, ammo chiroqlar umumiy berilgan. Aynan bir eksponatni yoritib berishga xizmat qilmaydi. Bu muzeyda ham huddi Rossiyadagi Zamonaviy sport muzeyi kabi medal ashyolari vitrinada zich tarzda joylashtirilgan bo'lib, bu tashrifchilar e'tiborining bo'linib ketishiga xizmat qiladi.

Zamon o'zgargani sayin u bilan birga insonlarni ongi ham o'zgarib bormoqda. Shu bois muzeylardagi eksponatlarga ham boshqacha ko'z bilan qaraladigan bo'ldi. Muzeylar tashrif buyuruvchilarning bo'sh vaqtni qiziqarli

o'tkazishi mumkin bo'lgan maskanga aylanib bormoqda. Bu esa muzey ishini zamon bilan hamnafas rivojlanishni hamda yuqori texnologiyalarni joriy etilishining natijasidadir⁶⁶.

Muzeylar elitar belgilardan ozod bo'lib, o'tgan asrning klassik konsepsiyasidan yiroqlashgan holda, muzey materiallarini namoyish etishning yangi usullari, maxsus muzey strukturalari, madaniy-ta'limiy faoliyatning noan'anaviy dasturlari va qiziqarli turizm loyihalari yaratilmoqda. Albatta bugungi kunda muzeylar an'anaviy vazifalar va funksiyalardan biroz chetga chiqib, jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga ko'mak beruvchi yanada keng dasturlarni amalga oshirish kerak. Masalan ekspozitsiyalarni axborotlashda yana bir muhim aspektlardan biri muzey zallarida o'ziga xos muhit yaratish va tomoshabinlarga ko'tarinki kayfiyat baxsh eta olishdir. Aynan Olimpiya shon-shuhrati muzeyida ham huddi shunday tadbirlar olib borish kerak. Noan'anaviy tadbirlar tashkil qilish masalan, o'quvchilar bilan birgalikda sport master klasslari tashkil qilish, musoboqalar o'tkazish va musoboqalarda g'olib chiqqan o'quvchilarga muzey tomonidan esdalik sovg'alar taqdim qilish yoki aynan muzey tomonidan ishlangan muzey logotiplari tushurilgan faxriy yorliqlar yoki esdalik medallar taqdim qilish orqali muzeyga tashrif buyuruvchilarning vaqtlarini mazmunli, qiziqarli va foydali o'tkazishlariga katta hissa qo'shsa bo'ladi. Albatta bu tadbirlar belgilangan vaqtda har oyda o'tkazilishi mumkin, tashkillashtirishdan oldin maktablarga, internet saytlari orqali ommaga ham ma'lum qilinadi. Bunda noan'anaviy tadbirlar, musoboqalar o'tkazish bilan boshqa muzeylardan farqli tomonlarini omma e'tiboriga havola qilish mumkin. Musoboqalarda g'olib bo'lgan o'quvchi yoki talabalarni rag'batlantirish maqsadida aynan muzey tomonidan yaratilgan medallarning taqdim etilishi ham o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ladi.

XXI asr muzeylar uchun "innovatsiyalar asri" deb belgilangan. So'nggi yillar mobaynida muzeyshunoslar tomonidan ommaviy auditoriyani jalb etishdagi ko'plab dolzarb masalalar ko'rib chiqilmoqda. Mazkur masalalar yuzasidan muzeyni tashkil etuvchi ilmiy va ko'ngilochar vositalari haqida, muzeyning atrof-

⁶⁶ Ж.Исмаилова., К.Нишанова. Музей ва жамият (дарслик) – Тошкент: Чинор ЭНК, 2015. - 176 б.

muhit va jamiyatning rivojiga qay darajada ta'sir etishi haqida bir qator fikrlar yuritilgan.

Muzeylarning vazifasini aniqlash uchun “faoliyat” degan so'zning lug'aviy ma'nosini tavsiflashga to'g'ri keladi. Bu so'zning ma'nosi muzeylarning ijtimoiy-madaniy vazifasini to'liq ochib beradi. Shundagina muzeyga ma'lum bir faoliyat vazifasini bajaruvchi muassasa sifatida qarash mumkin bo'ladi. Muzeyga shu tarzda yondashish uning faoliyatida boshqa muassasalar faoliyatida mavjud bo'lmagan o'ziga xos sifatlarni, ya'ni, fondlarni to'plash, yig'ish, ilmiy- tadqiqot ishlarini olib borish, ekspozitsiya- ko'rgazma uyushtirish, ta'lim- tarbiya ishlarini olib borish kabi amaliy jihatlarini ochib beradi⁶⁷.

Hozirgi kunga kelib, butun dunyo muzeylari oldida “XXI asr muzeyi qanday bo'lishi va tashrif buyuruvchilarni qanday jalb qilishi kerak”, - degan muammoli masala ko'ndalang turibdi. Muzey ashyolarini endilikda nafaqat moddiy jihatdan namoyish etish, balki ularni zamonaviy texnologiyalar yordamida turli uslublarda targ'ib etish imkoni tug'ildi.

Muzeylarning ta'lim- tarbiya vazifasi, muzeydagi eksponatlar haqidagi ma'lumotni tashrif buyuruvchilarga tushuntirishning turli usullarini qo'llash orqali ya'ni yuqorida aytib o'tganizmizdek turli xil amaliy mashg'ulotlar, ayniqsa sport muzeylariga xos bo'lgan master klasslar tashkil qilish tashrifchilarning sonini va muzey ekskursiyasining yanada tushunarliroq bo'lishiga va tashrifchilarning mazmunli vaqt o'tkazishlarini ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, bugungi kunda aynan Olimpiya shon-shuhrati muzeyi faoliyati o'zining tashabbuskorligi bilan, tashkiliy masalalar bo'yicha va internet saytlarida ham faolligi bilan kuzatuvchilari va tashrifchilarini qiziqtirib kelmoqda ammo ushbu muzeydagi ekspozitsiya tashkil etilishi va medal kolleksiyalarining namoyish etilish masalalari kamchiliklardan holi emas. Sport muzeylarida ayniqsa medal ashyolarining ahamiyati va o'zni yuqori bo'lishini hisobga olgan holda medal kolleksiyalarini namoyish etishda zamonaviy va o'ziga xos uslublardan foydalanish uning qiymatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

⁶⁷ Исмоилова Ж.Х., Нишанова К.С. Мухаммедова М.С. Музей ва жамият. –Т.: Чинор ЭНК, 2015.

XULOSA

Moddiy va ma'naviy merosni saqlashda bugungi kundagi muzeylarning o'zni beqiyos bo'lib, ular o'zining bugungi faoliyati bilan avvalgi muzeylar faoliyatidan tubdan farq qiladi. Zamonaviy muzeylar madaniy merosni yangi qirralarini ochar ekan, millatlararo do'stlik va bag'rikenglik prinsipiga ham alohida e'tibor berish lozim.

Muzeylar xalqning ma'naviy-axloqiy kamolotida yanada muhim o'rin egallay boshladi. Qadriyatlarimizni, boy tariximizni, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi noyob, nodir eksponatlar bilan muzey ekspozitsiyalari boyitildi. Shuningdek, muzeylarni jahon standartlariga moslashtirish, jahonga tanitish, ulardan yoshlarimiz ongida milliy g'urur va iftixor, milliy g'oyaning o'rin olishiga muhim omil bo'lishi, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'ularini shakllantirishga alohida e'tibor berildi.

Muzeylar o'z faoliyatining chegaralarini kengaytirgan holda nafaqat o'zining an'anaviy madaniy merosini saqlash va targ'ib qilish rolini, balki zamonaviy iqtisodiy va madaniy jarayonlarning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Bugungi muzeylar kechagi ekspozitsiyalardagi bir xillik, o'zgarmas ko'rgazmalar va zerikarli ekskursiyalardan voz kechib, manzur bo'ladigan yangi yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatmoqdalar. Muzey marketingi, menejmenti, muzey pedagogikasi, imkoniyati cheklanganlar uchun maxsus ko'rgazmalar, virtual muzeylar, yangi yo'nalishdagi loyihalar va zamonaviy texnologiyalar bugungi kunda muzeylar faoliyatini tubdan o'zgartirib yubordi.

Olimpiya shon-shuhrati muzeyida ham yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek shu vaqtgacha ko'pgina muhim xalqaro va davlat tadbirlari o'tkazilib, sportchilarimiz bilan suhbatlar, uchrashuvlarni amalga oshirish an'ana bo'lib kelmoqda. Zamonaviy texnologiyalar yordamida muzey o'z ekskursiyasini qiziqarli boyitib bormoqda.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi ikkita bo'limdan iborat. Birinchi bo'limda asosan ,medal san'atining vujudga kelish tarixi, medalning milliy badiiy

yodgorlik sifatida tarixdan egallagan katta o'zni haqida ochib berilgan. Antik davrdan boshlab zamonaviy medal san'atigacha bo'lgan davrlarda medallarning ko'rinishi, vazifasi, ishlanish texnikasi orqali bir biridan farqi, butun bir davrni ochib berishi bilan tarixiy voqealarni tasvirlab, buyuk shaxslar haqidagi qimmatli ma'lumotlarni hozirga qadar saqlanib kelishida boshqa san'at turlari kabi qo'shgan hissasi haqida ma'lumotlar keltirilgandir. Qadimgi metall buyumlari, tangalar va zargarlik buyumlari muhim voqea- hodisalarni abadiylashtirishga xizmat qilgan va bizning davrimizga qadar saqlanib qolgan. Ular orqali turli davrlarga oid muhim voqealar ham o'rganilgan. Ayniqsa, Italiya Uyg'onish davri medal san'ati va medal san'ati maktabi asoschisi Antonio Pisano(1395-1455) yaratgan medal namunalari butun dunyo medal san'atining poydevori bo'ldi va Fransiya, Germaniya kabi davlatlarda ham o'ziga xos san'atning rivojlanishiga turtki bo'ladi. Bu esa keyinchalik zamonaviy medal san'atining vujudga kelishiga va hozirga qadar qiymatini y'o'qotmagan holda o'z o'rnini egallab kelayotgan san'at turi sirasiga kirishiga zamin bo'ldi. Birinchi bo'limda medal san'atining rivoji bosqichma- bosqich ochib berilgan.

Ikkinchi bo'limda esa medal san'atida allegoriya, atributsiya va timsollarning ahamiyati o'rganildi. Bunda tasviriy san'atning bir nechta turlari o'rganilib, medal san'atiga ularning ta'siri yuqori bo'lganligi ochib berildi. Medal san'atidagi ramziylik va allegoriyalarni avval biz monumental asarlar va tasviriy san'at turlarining boshqa turlariga murojaat qilgan holda osonroq tushunamiz. Bu bizga yetkazib berilishi kerak bo'lgan g'oyani to'g'ri anglab olishimiz uchun katta yordam beradi. Mashhur haykaltaroshlar I. Shadr, Vuchetich tomonidan yaratilgan asarlar ko'rib chiqildi va ularning ushbu san'at turiga qo'shgan katta hissalari o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi Olimpiya shon-shuhrati muzeyi faoliyati va medallar kolleksiyasini namoyish etishdagi kamchilik va yutuqlari o'rganilib, ochib beriladi. Ikkinchi bob ham ikki bo'limdan iborat.

Ikkinchi bobning birinchi bo'limi asosan taqqoslashdan iborat bo'lib, jahon muzeylari faoliyati va medal kolleksiyalarini saqlash tajribasi, medal

to'plamlarining namoyish etilishi o'rganildi va ulardagi yutuq va kamchiliklar haqida keltirib o'tilgan.

Ikkinchi bo'lim esa asosan Olimpiya shon- shuhrati muzeyi faoliyati va undagi medal kolleksiyalarining namoyish etilishi, muzey medal ashyolarini ekspozitsiyaga qo'yish masalalariga bag'ishlandi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida Olimpiya shon- shuhrati muzeyi faoliyati o'rganib chiqildi va undagi medal kolleksiyalari o'rganilib, jahon muzeylaridagi medal kolleksiyalari bilan taqqoslandi va yutuq va kamchiliklari ochib berildi.

Yuqorida aytib o'tilganidek Olimpiya shon- shuhrati muzeyi faoliyati o'zining tashabbuskorligi bilan, tashkiliy masalalar bo'yicha va internet saytlarida ham faolligi bilan kuzatuvchilari va tashrifchilarini qiziqtirib kelmoqda ammo ushbu muzeydagi ekspozitsiya tashkil etilishi va medal kolleksiyalarining namoyish etilish masalalari kamchiliklardan holi emas. Sport muzeylarida ayniqsa medal ashyolarining ahamiyati va o'rni yuqori bo'lishini hisobga olgan holda medal kolleksiyalarini namoyish etishda zamonaviy va o'ziga xos uslublardan foydalanish uning qiymatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Berilgan taklif va mulohazalar o'rinli deb topilsa hamda amaliyotga tadbqiq etilsa, medal kolleksiyalarining muzeylardagi o'rni va ahamiyati ortadi va qadimdan saqlanib kelayotgan o'z qiymatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Ayniqsa sport muzeylarning ta'lim- tarbiya vazifasi, muzeydagi eksponatlar haqidagi ma'lumotni tashrif buyuruvchilarga tushuntirishning turli usullarini qo'llash orqali masalan, turli xil amaliy mashg'ulotlar, ayniqsa sport muzeylariga xos bo'lgan master klasslar tashkil qilish tashrifchilarning sonini va muzey ekskursiyasining yanada tushunarliroq bo'lishiga va tashrifchilarning mazmunli vaqt o'tkazishlarini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

- 1.1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2017.
- 1.2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2017. –Б. 14.
- 1.3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Т.: Ўзбекистон, 2017. –Б. 23.
- 1.4. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. –Т.: Ўзбекистон, 2017.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hujjatlari

- 2.1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 23 декабрда қабул қилинган «Республика музейлар фаолиятини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори // Халқ сўзи, 1994 йил 24 декабрь.
- 2.2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Музейлар фаолиятини тубдан яхшилаш ва такомиллаштириш тўғрисида»ги Фармони. 1998 йил 12 январь // Халқ сўзи, 1998 йил 13 январь.
- 2.3. Ўзбекистон Республикасининг «Музейлар тўғрисида»ги Қонуни. 2008 йил 12 сентябрь // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 йил 37–38-сон. – Б. 12-20.

3. Adabiyotlar

- 3.1 Бекмуродов М., Рашидова М. Музейшунослик. – Т.: Ворис Али, 2006. – 102 б.
- 3.2 Исмаилова Ж., К. Нишанова. Музей ва жамият (дарслик) – Тошкент: Чинор ЭНК, 2015. 176 б.
- 3.3 Илалов И. Музееведение. Т.: Муסיқа. -2006.

- 3.4 Исмоилова Ж.Ҳ., Нишанова К.С. Муҳаммедова М.С. Музей ва жамият. –Т.: Чинор ЭНК, 2015. - 176 б.
- 3.5 Исмоилова Ж.Ҳ., Муҳаммедова М.С. Замонавий жаҳон музейшунослиги. – Т.: Munis design group, 2013. -331 б.
- 3.6. Кишманова Л. Н. Введение в античную нумизматику. М.. 1969.
- 3.7. Косарева А. Искусство медали. – Москва: «Просвещение», 1982.
- 3.8. Курязова Т.Д. Ўзбекистонда музей иши тарихи. – Т.: Санъат , 2010. - 143 б.
- 3.9. Kuryazova T.D. Muzey ishi tarixi va nazariyasi . –Т.: O'qituvchi, 2007. - 159 б.
- 3.10. Муҳаммедова С.М. Музейшунослик соҳасини ривожлантиришда миллий ва халқаро ташкилотлар фаолиятининг ўрни (XX—XXI аср). – Т.: 2017. - 299 б.
- 3.11. Нишанова К. Музей – халқ тарихи кўзгуси. –Т. :Ёшлар матбуоти, 2011. - 391 б.
- 3.12. Одноралов Н. В. Техника медальерного искусства. – Москва: «Изобразительное искусство », 1983.
- 3.13. Олимпия Шон-шухрати музейи. Йўлкўрсаткич/ Тузувчи: Ахмадалиева Г. 2016.
- 3.15. Содиқова Н.С. Маданий ёдгорликлар хазинаси. Т.:Фан-1981.
- 3.16. Содиқова Н.С. Музейное дело в Узбекистане. Т.: Фан- 1975.
- 3.17. Фузаилова Г., Хасанова М. Музеведение. –Т.: Фан ва технологиялар босмахонаси, 2008. - 192 с.
- 3.18. Эрназаров Э. Олимпияда – жаҳон спорти байрами. Т.: Шарқ . 2008.

4. Jurnal maqolalar

- 4.1. Axmadaliyeva G. Olimpiya shon-shuhrati muzeyi. Moziydan sado. – Toshkent. 2014. №4(64).-17-bet.
- 4.2. Жабборов И., Раҳимова Д. Замонавий музейшуносликнинг долзарб муаммолари // Мозийдан садо. – Тошкент, 2003. – № 1 (7). – Б. 10-12.

- 4.3. Исмоилова Ж. Музей – тарих кўзгуси // Мозийдан садо. – Тошкент, 2003. – № 2 (18). – Б. 17-78.
- 4.4. Ҳабибуллаев Н. Ўзбек музейларининг истиқболи // Мозийдан садо. – Тошкент, 1999. – № 1-2. – Б. 12-13.

5. Internet saytlar

- 5.1. <https://ru.m.wikipedia.org>
- 5.2. Olympic.org/museum
- 5.3. www.smsport.ru/museum/
- 5.4. <https://t.me/Olympicmuseum>

ILOVALAR

Qadimgi medallar



1896-yil Afinadagi (yunoniston) I Olimpiada o'yinidagi medal



1904-yil Sent-Luisdagi (AQSH) III Olimpiada o'yinidagi medal



1912-yil Stokgolmdagi (Shvesiya) V Olimpiada o'yinidagi medal



1920-yil Antverpendagi (Belgiya) VII Olimpiada o'yinidagi medal



1924-yil Shamonidagi (Fransiya) I Olimpia qishki o'yinidagi medal



1924-yil Parijdagi (Fransiya) VIII Olimpiada o'yinidagi medal

**Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining
Lozannadagi Olimpiya muzeyi medal kolleksiyasi**







**Rossiya Olimpiya Qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan Rossiya Olimpiya
harakatining zamonaviy sport muzeyi medal kolleksiyalari**





Olimpiya shon-shuhrati muzeyi medal ashyolarini ekspozitsiyasi





Medall. VIII Olimpiada o'yinlari bronza medali. 1924-yil.
Saqlash joyi – ekspozitsiya.
2-qavat 7-vitrina.



Medal. XI Olimpiada o'yinlari esdalik medali. 1936- yil. Qorli tog' Olimpiya halqalari
va 1936 yozuvi.




Medal. Helsinskidagii VIII qishki Olimpiada o'yinlari kumush medali. Ayol va Erkak kishi boshi
tasvirlangan "VIII OLYMPIC WINTER GAMES" yozuvli ,2-tomonida Olimpiya 5 ta xalqasi.
CITIUS, ALTIUS,FORTIUS. PATI NAGE yozuvi tushirilgan.



Medal. XIX Olimpiya o'yinlaridagi volleybol bo'yicha 1-o'rin uchun oltin medal. Mexiko 1968-yil. Old tomonida lavr bargini tutgan ayol tasvirlangan. XIX OLIMPIADA MEXICO 1968-yozuvli. 2 tomonida elkasiga g'alaba qozongan sportchini ko'tarib ketayotgan to'qqizta sportchi tasviri tushirilgan 83-smli qizil tasmadan iborat.



Medal. V Olimpiya o'yinlari bronza nishoni. 1912-yil Stokogolm 1-tomonida taxtda o'tirgan ikki ayol kishi bo'lib sportchi boshiga gulchambar kiydirishi tasvirlangan, 2-tomonida Olimpiya o'yiniga chorlayotgan kishi "OLYPIKA SPELEN STOCKHOLM 1912" yozuvi va buyuk odam tasvirlangan.



Toshkent shahri jamoasining Osiyo qit'asidagi shaharlararo shaxmat musobaqasi oltin medal, shaxmat figurasi tasvirlangan "ASIAN CITIES TEAM CHESS CHAMPIONSHIP DUBAI CUP" yozuvi bitilgan. 1996-yil.